

NUTQ NUQSONLARINI BOLA RUHIYATIGA TA`SIRI.

Zayniyeva Gulrux Faxriddinovna

*Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

G'iyasova Nargiza Yunus qizi

*Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. *Maqolada yosh bolalarni nutqiy rivojlanishida o'yinlarni o'рни, bunday o'yinlarni bola ruhiyatiga ta'siri haqida tushinchalarga to'xtalib o'tilgan. Bolalarni tarbiyalashda nutqiy faoliyatni o'рни haqida alohida to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *nutqiy faoliyat, tafakkur, logopedik shaxobcha, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar.*

ВЛИЯНИЕ ДЕФЕКТОВ РЕЧИ НА ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ

Аннотация. *В статье рассматривается роль игр в развитии речи детей раннего возраста, влияние таких игр на детскую психику. Отдельно рассматривается роль речевой деятельности в воспитании детей.*

Ключевые слова: *речевая деятельность, мышление, логопедическая шахабча, дети дошкольного возраста.*

INFLUENCE OF SPEECH DEFECTS ON THE PSYCHOLOGY OF CHILDREN

Abstract. *The article discusses the role of games in the development of speech in young children, the impact of such games on the child's psyche. The role of speech activity in the upbringing of children is considered separately.*

Key words: *speech activity, thinking, speech therapy shahabcha, preschool children.*

KIRISH

Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari ,tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So`zning ahamiyati o`z-o`zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o`zida nafaqat nutq birligi ,balki tafakkur birligi ham namoyon bo`ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tafakkurining o'sishiga nutq juda katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki til bilan tafakkur o'zaro uzviy bog'liq jarayondir. Lekin maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarda hali tom ma'nodagi tafakkur rivojlanmagan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari o'ziga xos xususiyatlarga hamda aniq xarakterga egadir. Bola ayni chog'da idrok qilib turgan narsalari haqidagina juda sodda tafakkur qila oladilar bundan tashqari, bu yoshdagi

bolalarning tafakkur jarayonlarida harakat elementlari ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham ularning tafakkurini ba'zan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarda hali tafakkurning fikriy operatsiyalarini, ya'ni analiz, sintez, umumiyashtirish kabilarni ko'rmaymiz. Ular qo'llaridagi o'yinchoqlarini amaliy (aylantiradilar, paypaslaydilar, buzib ko'radilar- tahlil qiladilar. Lekin bundan maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalar fikriy jarayonlarni amalga oshirishga qodir emaslar, degan ma'no kelib chiqmaydi. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshining oxiriga kelib tafakkurning o'sishida nutqning roli juda oshadi. Bola yangi so'zlarni mumkin qadar ko'proq bilib olib, ulardan o'z tafakkurida keng foydalana boshlaydi. Bu esa fikrlash jarayonlarining o'sishiga yordam beradi. Bolada so'zlar vositasi bilan tahlil va sintez qilish, abstraksiyalash hamda umumlashtirishning dastlabki alomatlari ko'rinsa boshlaydi. Agarda bolaning nutq nuqsoni bo'lsa bola nutq boyligi qanchalik boy bo'lmasin u muhitga moslasha olmaydi shu bois unda ajralib qolish holati kuzatila boshlaydi. Bunda bola o'z fikrini erkin bayon eta olmaydi. Chunki uning ayrim tovushlari boshqa tovushlar bilan almashib qolishi natijasida so'zlar buzilgan holatda eshitiladi. Bazi holatlarda tengdoshlari uni masxara qilish holatlari kuzatiladi va bola o'zini tengdoshlaridan torta boshlaydi. Bunday holatda uyda ota-ona, ta'lim muassasalarida pedagog xodimlar bolaning psixologik xolatini to'g'ri tushunib uni logopedik ko'rikka yo'naltirishi va undan yordam olishi zarur. Shaxsan o'zim ancha yillardan buyon logoped o'qituvchi sifatida faoliyat yuritib kelmoqdaman. Ish tajribamdan kelib chiqib shunday xolatlarga guvoh bo'ldimki ayrim ota-onalarning e'tiborsizligi tufayli nutqida nuqsoni bor bolalar ko'payib bormoqda. Bunda turli xil sabablar mavjud. Ota-onalarning farzandlar oldidagi turli xil tortishuvlari, bolaning ona qornida rivojlanish davrida onaning stress holatlari, bolaning nimadandir qattiq qo'rqishi va boshqa sabablarni keltirishimiz mumkin. Ish tajribamda eng achinarli xolatlardan biri 15yoshli bolani sinf rahbari yonimga olib keldi. U bilan suhbatlashish jarayonida uning o'ta bilim darajasi yuqoriligi namoyon bo'ldi. Ammo uning nutqidagi nuqsoni tufayli uyga berilgan topshiriqlarni umuman aytib berishni istamasligi, bolalar uni masxara qilishi, o'rtoqlari bilan juda ko'p tortishib qolayotganligi holati aniqlandi. Bunday holatlarda bola kamgap va o'zini o'ta yolg'iz his qila boshlaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Mazkur holatda bola shuncha yillardan buyon e'tiborsiz qolib nutqidagi nuqson tufayli o'zining tengdoshlaridan uyalib, darslarga ham faol qatnasholmay kelayotgan ekan. Nahotki ota-ona shuncha yillardan buyon farzandining bunday xolatini sezmasa, bu holat e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa. Bu achinarli hol albatta.

Qisqa vaqt ichida bolaning nutqidagi nuqsonlari bartaraf etilib, to'g'ri bu oson bo'lmadi, bola tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa boshladi. Agarda bolaning nutqidagi nuqsoni vaqtida aniqlanib u bilan logoped ishlaganida edi bola o'zining qobiliyatlaridan unumli foydalanar, o'zini tengdoshlaridan tortib yurmas edi. Yaqin yillardan boshlab davlatimiz tomonidan umumta'lim maktablarida ham logopedik shaxobchalarning tashkil

etilganligi maqtovg'a sazovordir. Chunki, maktabgacha ta'lim muassasasiga bormagan bolalar ham bor .

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnar va Aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining qarori bilan 2015 yil 25 sentabrda umumiy o'rta ta'lim maktablarida logopedik shaxobcha tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Logopedik shahobcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishiga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish ,jismoniy va psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash,o'quvchilarning og'zaki nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etishda,ularning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishida pedagoglar va o'quvchilarning ota-onalari yoki o'rnini bosuvchi shaxslarga yordam ko'rsatish uchun tashkil etildi. Logopedik shahobchaga og'zaki nutq nuqsonlari va tovush talaffuzida kamchiliklari aniqlangan tashxiz natijalari quyidagicha bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadi:

I va III darajali nutqi to'liq rivojlanmagan 1-sinf o'quvchilari;

Tovush talaffuzida kamchiliklari bo'lgan 1-4 sinf o'quvchilari;

Nutq apparati a'zolarining tuzilishi va harakatida nuqsonlari –rinolaliya, dizantriya, duduqlanish- bo'lgan 1-4 sinf o'quvchilari jalb qilinadi.

Nutqiy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va psixik xolatiga aniqlik kiritish maqsadida ular tuman shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi mutaxassislari –nevropatolog, psixonevrolog, ortolaringolog va boshqa_ tekshiruviga yuboriladi. Ushbu mutaxassislarning xulosasiga ko'ra o'quvchilar logopedik shahobcha mashg'ulotlariga jalb qilinadi. Ularning tashxisiga qarab og'ir yoki yengil turdagi bolalar guruhlariga ajratiladi. Mashg'ulotlar guruhli va yakka tartibda o'tkaziladi. Logoped o'qituvchi logopadni artikulyatsion apparatlarini tekshirib u bilan korreksion ish olib boradi. Mashg'ulotlarda turli xil metodlardan foydalanib maqsadga erishishga harakat qilinadi. Mashg'ulot jarayonida logopadlarga psixologik yondashish ham juda muhim hisobnadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yosh avlod bizning kelajagimiz poydevori hisoblanadi. bolaning rivojlanishi davrida ota-onaning roli muhim ahamiyatga ega.Davlatimiz tomonidan shuncha imkoniyat yaratilib qo'yilgan ekan undan farzandlarimizni kelajagi uchun unumli foydalanishimiz zarur. Bola ruhiyati nozik xilqat sanaladi. Shu bois bolada qandaydir salbiy holatlarni sezsak kechiktirmay o'z vaqtida soha mutaxassislariga murojat qilish shart va zarurdir. Bundan tashqari uy sharoitida nutqida nuqsoni bor yani tovush talaffuzida kamchiligi bo'lgan \S,Z,SH,Q,K,G`,L,R.....\tovushlari yo`q yoki boshqa tovush bilan almashib qolgan tovushlar ustida korreksion ish olib borishning eng samarali usullaridan biri bu ko`proq o`sha tovushni taqlid qilish , ochiq va yopiq bo`g`inga qo`yib aytirish,so`zga qo`yish bunda so`zning boshida ,o`rtasida va oxirida qatnashadigan so`zlar topib takrorlatish, gapga qo`yib mustahkamlashdan iboratdir. Qo`yilgan tovushni yanayam lug`at boyligiga mustahkamlash maqsadida bolaga shu tovushga oid sherlar, hikoya, maqol, topishmoqlar,

tez aytishlar yodlatish kerak. Har bir tovush ustida shunday ish olib borilsa albatta artikulyatsion apparatida muammo bo`lmasa yuqori natijalarga erishish mumkin. Keling azizlar bolajonlarimizni ruhiyatiga tasir etuvchi har qanday muammoni bartaraf etib ularning iqtidori va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beraylik. Zero bu yosh avlod bizning kelajagimiz yaratuvchilaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. "Logopediya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2007.
3. Ayupova.M.YU "Korreksion ishlar metodikasi" Ma'ruza matni .T-2001
4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova "Logopediya Zaikaniye" xrestomatiya - Eksmo-Press, 2001.